

**R.T. ANKABAYEV**

**BO'LAJAK TASVIRIY  
SAN'AT O'QITUVCHILARNING  
BADIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI  
(to'g'arak mashg'ulotlari misolida)**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**ANKABAYEV RAXIM TURG'UNOVICH**

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT  
O'QITUVCHILARNING  
BADIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI  
(to'garak mashg'ulotlari misolida)**

**MONOGRAFIYA**

«City of book»  
Toshkent – 2025

UO'K 75.01;76.01;37.1

KBK 85.14;85.15;74.1

A-12

**Ankabayev Raxim Turg'unovich**

**Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi (to'garak mashg'ulotlari misolida) / Monografiya. – T.: «City of book» nashriyoti, 2025. – 84 b.**

Mazkur monografiya respublika oliy ta'lim muassasalarining tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarda talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish, xorijiy tajribalardan foydalanish, mustaqil ta'limni modernizatsiyalash, optimallashtirish hamda raqamlashtirish masalalariga bag'shlangan.

Monografiya 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi hamda 70111201-Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan bakalavriat va magistratura talabalariga, shuningdek, soha bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

#### **Taqrizchilar**

**X.E.Sultonov** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at kafedrasida professori p.f.d.(PhD)

**S.F.Abdurasilov** – Nizomiy nomidagi TDPU Tasviriy san'at kafedrasida professori p.f.n

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik kengashining 2024 yil 16-dekabrda 7-sonli majlisi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan*

**ISBN 978-9910-9026-7-3**

## **KIRISH**

Tahonda kuzatilayotgan globallashtirish jarayonlari ta'lim va fan sohalarida unga moslashish bilan bog'liq integratsion va innovatsion jarayonlarni paydo qilmoqda. Dunyo bo'yicha ta'lim tizimiga oid eng yirik asborot manbalaridan biri hisoblangan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD)ning tahlillari bo'lajak pedagog-o'qituvchilarning kasbiy innovatsion faoliyatini rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv jarayonlari samaradorligini oshirish, maktab yoshidan boshlab ta'lim oluvchini to'g'ri kasbga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalari talabalarida badiiy-ijodiy kompetentligini ta'limning turli shakllari orqali takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish lozimligini ko'rsatmoqda. Binobarin, "Bozor iqtisodiyotiga layoqatli, maktab uchun emas, hayot uchun o'qiydigan o'qituvchilarni tarbiyalash" ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan zamonaviy talablar mezonini hisoblanadi va uni ilmiy-pedagogik muammo sifatida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning bir qator yetakchi mamlakatlarida "STEAM – ta'lim" konsepsiyasi asosida ta'lim oluvchilarning badiiy-ijodiy kompetentligini, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish bo'yicha innovatsion o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy va ijodiy qobiliyatlarini pedagogikaning zamonaviy paradigmalariga asosida yanada takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jamiat talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda nazariy bilimlarga asoslangan amaliy faoliyat uyg'unligi orqali bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligini takomillashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llash, motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi metodikalar tizimiga samarali tatbiq etishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq fundamental ilmiy tadqiqotlarga zarurat ortmoqda.

Respublikamizda mutaxassislik fani bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimi isloh qilinib, bu tizimga nisbatan xalqaro innovatsion

yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish, malaka talablari, o'quv dasturlari hamda ta'limning integratsion shakllarida badiiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini, innovatsion metodikasini rivojlantirish zarurati paydo bo'lmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "ta'lim mazmuni va sifatini oshirish, raqobatbardosh, yuqori bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlashda samarador bo'lgan pedagogik ta'lim innovatsion klasterlarini joriy qilish"[1] mexanizmlari yanada takomillashtirilmoqda. Bu, o'z navbatida, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim sifatini oshirishga katta e'tibor qaratish, ta'lim mazmunini loyihalash, o'qitishning yangi metodik modellarini joriy etish, to'garak mashg'ulotlari metodikalarini yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

To'garak mashg'ulotlari asosida pedagogika sohasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ularning kasbiy-pedagogik salohiyatini rivojlantirish masalalarini monografik planda tadqiq etish zarurati mazkur dissertatsiyaning mavzusini belgilab berdi.

## **1. BOI, BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARNING BADIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

### **1.1. §. Bo'lajak o'qituvchilarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida**

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini badiiy tayyorlashning zamonaviy talablari bitiruvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq jiddiy o'zgartirishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlar jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini joriy etishga, huzurimizdagi maktablarning tasviriy san'at o'qituvchilariga qo'yilayotgan talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan. Ayniqsa, hozirgi sharoitida oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetentligini yaxlit qilishni shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori [1] qabul qilindi. Qarorda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish vazifalari belgilab berilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini badiiy metodik jihatdan tayyorlash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

• bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan tayyorlashni insonparvarlashtirish;

• ilm-fan texnologiyalarining tezkor rivojlanishi sharoitida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga tizimli yondashuv;

• tasviriy san'at ta'limini metodologik asoslantirish;

• tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimi, ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish.

Yuqorida qayd etilganlardan anglanadiki, bugungi kunda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda to'g'arak mashg'ulotlar tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar hamda ta'lim jarayonida o'rnatilgan shaxsiy hamda kasbiy ko'nikmalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish amaliyotidan foydalanishni, ularning o'z kasbiy malakalarini muntazam ravishda oshirib borish va bunda samarali uslublarni o'zlashtirishni hamda amaliyotga joriy etishni nazarda tutadi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyot hamda ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda yurtimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarni joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ixtisoslik yo'nalishlarini takomillashtirish borasida samarali ishlar amalga oshirildi, o'zbekistonda keyingi yillarda jamiyatda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qator topishi bilan bog'liq ravishda ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarda nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita samarali tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj shakllandi. oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetentlikka ega bo'lishlarini ta'minlash yuqorida qayd etilgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuv va jarayonlar tizimidan iboratdir.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at ta'lim yo'nalishlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan markaz ta'lim muassasalarida tasviriy san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda badiiy-ijodiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladigan zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish masalasiga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Respublika OTMda tasviriy san'at yo'nalishida bakalavrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, OTM zimmasiga bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ta'limga ijodiy yondashgan holda muammolar yechimini topish, munozir filarga asoslangan xulosa chiqarish, badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish vazifalari yuklatilgan. Shunga ko'ra, oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish va tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur muammo yuzasidan qator olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Jamiyatimizning isloh qilinishi ta'lim tizimining yetakchi elementi sifatida zamonaviy maktablarni modernizatsiyalash zarurligini ko'rsatmoqda. Zamonaviy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davri o'sib kelayotgan shaxs uchun ahamiyatlidir. U ta'lim siyosati, qonunchilik tizimi, jo'shqin tashabbuskorlik va g'oyaviy harakatlar, ijtimoiy-pedagogik bilish, pedagogik tadqiqotlar va bilimlarda o'z aksini topadi.

Tasviriy san'at tarbiya sohasining ajralmas qismi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni yaratuvchanlik va faoliyat, kasbiy o'zlikni anglash, bo'lajakda oliy ta'lim bitiruvchilarining turli kasblarni egallashlari bilan bog'liq munozir ijodiy faoliyatga tayyorlashga ko'mak beradi.

Tasviriy san'atning asosiy maqsadi san'at asarlariga manaviy muvofiqlikni shakllantirishdan iborat. Milliy qadriyatlarni o'rganish orqali